

## BOLALAR KIYIMINI TIKISH

*Forish tuman kasb-hunar maktabi  
Ishlab chiqarish ta'limi ustasi  
Kadirova Nasiba Keldibekovna*

**Annotatsiya:** Kiyim insonning ilk rivojlanish davridan boshlab doimo inson bilan birga rivojlanib keldi. Kiyimning dastlabki ko'rinishlari Ibtidoiy davr odamlarining qabila bo'lib yashagan vaqtiga to'g'ri kelgan. Bu davrda daraxt barglari, poxollar, hayvon terilarini tanaga beldan bog'lab yurishgan.

Kiyim insonning ijtimoiy hayoti, melinat faoliyati va ongining rivojlanishi tufayli ham rivojlanib bordi. Kiyimning keyingi ko'rinishi turli o'simlik va hayvonot mahsulotlaridan to'qilgan oddiy gazlamalami tanaga o'rab yurishdan iborat edi. Qadimgi Gresiyada erkaklar kiyimi ikki qismdan - xiton va gimatiydan iborat bo'lgan. Xiton — bu ichki kiyim bo'lib, jun yoki zig'ir tolali gazlamadan tayyorlangan.

**Kalit so'zlar:** Chakaloqlar, kiyim, chok, igna, bo'laklar, qirqim.

Chaqaloqlar kiyimi (kunduzi va kechasi kiyadigan ko'ylak — raspashonka, paypoq-ishton — polzunki, qalpoqcha — chepchik va boshqalar) yengil, qulay, havoni yaxshi o'tkazadigan, issiq tutadigan, gigroskopik bo'lishi kerak. Ichki kiyim bolaning erkin nafas olishiga, badanda qonning harakatlanishiga xalaqit bermaydigan bo'lishi lozim. Chaqaloqlar kiyimlarini mumkin qadar kamroq chok solib tikish kerak. Ulaming kunduzgi raspashonkasining yo oldi, yo orqasi ochiq bo'ladi.

Bu raspashonkalarga mutlaqo tugma qadalmaydi, uning old bo'laklari bir-biri bilan tasma yoki lentalar bilan bog'lanadi. Bolalar kiyimi kunduzgi yoki kechasi kiyilishiga, mavsumga hamda bo'laning yoshiga qarab turli gazlamalardan (batist, paxm oq gazlama, bumazeya, surp va shu kabi mayin gazlamalardan) tikiladi. Bunday gazlamalarning rangi asosan ochiq (ko'p hollarda oq rangda), gullari mayda bo'lgani ma'qul.

Maktabgacha yoshdagi qiz bolalar ko'ylagi turli-tuman bo'ladi. Qiz bolalar ko'ylaklari ko'ylak etak qismiga kengaygan, yengi fonarik, bo'yin o'mizi bo'ylab yotadigan yoqa va taqilmasi ko'ylakning orqa bo'lagida joylashgan. Ko'ylakda aylana shaklda koketkalar bor bo'lib, uni paxta tolali gazlamalardan tikish tavsiya qilinadi. Model chiziqlari quyidagicha kiritiladi. Ko'ylak old va ort asosi qog'ozga tushirib olinadi. Old va ort bo'lak o'rta chiziqlaridan koketkaning uzunligi (8-9 sm) belgilab olinadi.

Uning uzunligini ko'p hollarda yelka uzunligiga tenglashtiriladi. Yelka nuqtalaridan pastga yeng o'mizi bo'ylab 3-4 sm qo'yiladi va koketkaning pastki qirqimi ravon egri chiziq bilan tutashtiriladi. Old va ort bo'lakdagi koketkaning pastki

chiziqlari 4 bo‘lakka bo‘linadi. Bu nuqtalar orqali ko‘ylakning etak chizig‘i bilan kesishguncha chiziqlar o‘tkaziladi. Bu kesish chizig‘i hisoblanadi. Koketka qism i qirqib olinadi.

Shu chiziqlar orqali etak qismi koketka chizig‘iga 0,1-0,3 sm yetmasdan qirqiladi va har bir bo‘lak orasi 4-6 sm ga kengaytiriladi. Qiz bolalar ko‘ylagini modellashtirish Yengni va yoqalarni hosil qilish. Modellashtirish natijasida quyidagi detallar hosil bo‘ldi :

- 1 — ort etak qismi;
- 2 — old etak qismi;
- 3 — ko‘ylakning yengi;
- 4 — old bo‘lak koketkasi;
- 5 — ort bo‘lak koketkasi;
- 6 - ko‘ylak yoqasi.

Bezaklar kiyimni bezash uchun ishlatiladi. Bezaklarning turli tum an xillari mavjud. Bezak sifatida ko‘proq furnituralardan (tugmalar, piston, zamok, ilgak va hokazolar), hamda bezak gazlamalardan (tasma, to‘r, lenta va hokazo) foydalaniladi. Bezakning chiroyli turlaridan biri kashta, applikasiya hisoblanadi. Ayrim bezaklami asosiy yoki bezak gazlamalardan foydalanib ham ishlanadi. Bularga: burmalar, ryush, volanlar, adiplar, mayda taxlamalar, cho‘ntaklar, yelkabandlar kiradi. Gazlama rangida yoki kontrast rangda berilgan bezak bahya qator ham kiyimni bezatadi.

Ryush lentasimon gazlama bezagi bo‘lib, uning o‘rtasidan yig‘iladi va modelning mo‘ljallangan joyiga tikiladi. Ryush 45° burchak ostida bichiladi. Ryush gazlama rangida yoki boshqa ranglarda bo‘lishi mumkin. Ryush sifatida lentalar va to‘rlardan ham foydalanish mumkin. Ryushning uzunligi ryush tikiladigan joy uzunligidan 1,5-2 baravar uzun bo‘ladi. Ryushning kengligi 3,5-4 sm bo‘ladi. Ryushning ikkala qirqimiga ishlov beriladi.

Burmalar lentasimon gazlama bezagi bo‘lib, uning bir chetidan yig‘iladi va modelning mo‘ljallangan joyiga ulab tikiladi. Burmaning bir tomoni buyumga tikilsa, ikkinchi tomoniga ishlov beriladi. Burmalar kengligi 15 mm dan — 30 sm gacha bo‘ladi. Burmaning uzunligi tikiladigan joy uzunligidan 1,5-2 baravar uzun bo‘ladi.

1. Volan tikiladigan joyning uzunligi o‘lchanadi.
2. Aylana radiusi topiladi.
3. Topilgan radiusda aylana chiziladi.
4. Radiusni volan kengligiga oshirib, ikkinchi marta aylana chiziladi. Volan qirqiladi,

### **Adabiyotlar**

1.Г .К.Х асанбаева. "Кийим моделини ишлаш ва конструкциясини тайёрлаш". Тошкент. Укитувчи. 1990 йилт

2А .П .Рогова. "Эркақлар ва болалар устки кийим ини конструкторгдия-лаш асослари". Тошкент. Укитувчи. 1988 йил.

3.А.П.Ш ершнева. "Основы конструирования женской и детской одежды". Москва. Легпромбытиздат. 1982 г.

4.Г.В.Скачкова, Л.В.Мартопляс. Школа кройки и шитья на дому. Минск. "ХЭЛТОН" 2000 г. 5. Е.В.Киреева. "История костюма". Москва. "Просвещение". 1976 г